



ONA ALLASI-FAZILATLI JAMIyat BARPO ETISHNING MA'NAVIY OMILI SIFATIDA

Muallif: Imyamin Kirgizov¹

Affiliatsiya: Farg`ona davlat universiteti dotsenti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14437025>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy qo'shiq janri sifatida allaning bola tarbiyasidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi insoniy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilishi, qolaversa, allaning turli madaniyatlardagi o'rni, ijro uslublari, tarixiy mohiyati va qadimdan bugungi kungacha saqlanib qolgan an'analari keng yoritilgan. Shuningdek, allaning ijtimoiy tarbiya, ma'naviy boylik va ijodiy ilhom manbai sifatidagi roli ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alla, beshik qo'shig'i, bolalar uxlashi, oila, mehr-muhabbat, tinchlik, xavfsizlik, xalq og'zaki ijodi, ijro uslubi, an'anaviy qo'shiqlar, o'zbek xalq ijodi, milliy urf-odatlar, turk davlatlari, to'y marosimlari, "Yor-yor" qo'shiqlari, etnik madaniyat.

Alla - bu uning ijodiy faoliyatda qo'llagan usullar va yondashuvlar majmuasidir. Uning innovatsionlik metodologiyasi yangilikka intilish va standart yondashuvlardan chetga chiqishni o'z ichiga oladi, bu esa uning asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi va fazilatli jamiyat barpo etishning ma'naviy omili sifatida insonlar o'rtasidagi axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning mustahkamlangan, adolat, gumanizm, birdamlik va falsafiy nuqtai nazardan o'zgalarga namuna bo'lish maqsadidagi jamiyatni barpo etish bilan bog'liqdir.

Har bir ona allasi insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hurmat,adolat va tinchlik asosida tashkil etilgan jamiyatni qurishga ko'maklashadi. Chunki, ona allasi qadimda turk davlatlarida ma'naviy omil tarzida insonlarni jasoratga undagan. Masalan, Alpomish afsonasida, yigitlar kabilia uchun tiriklik va tuzumning asosini tashkil qilgan. Ular juda kuchli, chuqur bilimga ega bo'lishgan va o'z xalqlarini dushmanlardan qutqargan.

Alla (beshik qo'shig'i) xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lib, o'ziga xos qo'shiqlar va so'zlar bilan bolalarni uxlatish maqsadida kuyylanadi. Uning mazmuni asrlar davomida xalqning eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lgan va ba'zan ortiqcha bezakli so'zlar va ohanglar orqali oiladagi farzandga nisbatan mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, tinchlik va xavfsizlik hissini yo'qotmay turishga harakat qilgan.

Bu qo'shiqlar esa yosh ona yoki qo'shiqchi tomonidan, bolaning uyqusini yuksaltirish, ovoz va uning ohanglari bilan qiziqishini targ'ib qilish maqsadida ijro etiladi. Alla asosan bolani chiroyli, yumshoq va tinchlik bilan uxlatishga qaratilgan bo'lib, unda ko'pincha yotgan bolaga mehr va shodlik izhori bilan tolag'on ohanglar ishlataladi.

Shunday qilib, beshik qo'shig'i nafaqat uyqudek muhim jarayonda, balki oiladagi mehrni, ilohiy shodlikni ham ifoda etadi.

Ko'pincha Allaga havola etilgan so'zlar va fikrlar shuningdek, milliy urf-odatlar, tabiat tasvirlari va bolaning yangidan dunyoga kelishi kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Misol uchun, ko'pincha qo'shiqlarda "kechiraman, tinch uyquda bo'l" kabi so'zlar yorqin ishlataladi. Shu bilan birga, beshik qo'shig'ida bolani "yo'rgaklash", "beshikka solish" yoki "uyg'ongan bolani yechib olish" kabi jarayonlar ham aksentga olinadi, va har bir bosqichda qo'shiqlar bolaning ehtiyojlari va xolislik bilan bayon etiladi. Bu borada Zumradxon Astanovaning alla she'ri diqqatga loyiqidir.

Alla

Seni asta tebratgayman, allayo alla,
Alla aytib uxlatgayman allayo alla.
Boram qo'shiq kilib aytib allayo alla
Ilmu odob o'rgatgayman allayo alla.

Baxtli zamon farzandisan allayo alla,
Shukronalik payvandisan allayo alla.
Bag'rim butun sening bilan allayo alla.
Duolar ijobadisan allayo alla.

Otang davlat yumushida allayo alla
Elu yurtning tashvishida allayo alla
Otang kabi oqil bo'lgin allayo alla
Saxovatli har ishida allayo alla.

Onang kabi mehribon bo'l Allayo allaa
Zukko dono saramjon bo'l Allayo alla
Yurt koriga yaraguvchi allayo alla
El suygan komil inson bo'l allayo alla.

Baxtli ona allasi bu allayo alla,
Hamroh bo'lsin shirin uyqu allayo alla.
G'am ko'rmasin hech bir ona allayo alla,
Shunday alla aytsin mangu allayo alla

Bu so'zlarda bolani tinchlantirish orqali ilmu odob o'rgatish, shukronalikka undash, otasi kabi saxovatli bo'lishga motivatsiya mujassamdir. Aytish mumkinki, alla" qo'shiqlari milliy musiqa hamda she'riyatning boyligi bilan farq qiladi.

"Alla"ga yuksak baho berib e'tirof etgan qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning "Alla"ga oid mulohazalari janrning kelib chiqishini belgilashda g'oyat qimmatlidir: "Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabo'l qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi

bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi".[2.B.10.] Navoiy ham Farhodning beshikdagi ahvolini shunday tasvirlaydi: Arusi charx tun kun doya kirdor, Bo'lib har tavri holidin xabardor. Beshik davrida chiniyu xitoyi Bo'lib yuz no'sh lab doston saroyi. Ko'zining nozi eldin eltib uyqu, Anga uyqu keturmakka navogo'. Navoiy "Alla" aytuvchini "navogo" deya ta'riflaydi [2. B.11].

Jahondagi har bir xalqning o'z tilida kuylab kelgan "Alla"lari bor. "Alla" ruslarda "bayki" yoki "bayushki", turkmanlarda "huvdilar", ozarbayjonlarda "lay-lay", tatarlarda "alli-ballı", qoraqalpoqlarda "heyya-heyya", turklarda "ninni", forslarda "lolo", nemislarda "wiegelied", fransuzlarda "bekceuse", o'zbek va tojiklarda "alla" va "allo" atamalari bilan mashhurdir" [2. – B.9].

F.Abdurahmonova. "Alla" – folklor janri sifatida tebratish sur'atiga mos ravishda ijro etiladi. Matni, asosan, to'rtliklik; ijro uslubi erkin, badihago'y. "Alla" onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifodalaydi. Shu bois ba'zi "Alla" namunalari yig'i ohanglariga yaqin bo'ladi" [4. – B.228]. O'zbek tilining izohli lug'atida esa, "Alla" – go'dakni uxlatishda yakkaxon usulida aytildigan qo'shiq" [4. – B.71]. deya izoh berilgan.

"O'zbekistonning ba'zi hududlarida "Alla" nomi bilan aytildigan marosim qo'shiqlari ham mavjud. Macalan, Buxoro viloyati Olot va Qorako'l tumanlari hamda Xorazmda dafn marosimi jarayonida navbat bilan ayollar (yoki maxsus chaqirilgan allachi-go'yanda, xalfa) tomonidan badiha uslubida aytilan qo'shiqlar ham "Alla" deb nomlangan [5. – B.228].

O'zbek xalq qo'shiqlarida, faqatgina "Yor-yor" hamda "Alla" largina asosiy matndan keyin Navoiy aytganidek, "radif" o'rnida, ya'ni kichik naqorat sifatida barcha "Yoryor"larda, "alla"larda esa barcha aytildigan "Alla" larda qo'llanilib kelinadi. Agar "Yor-yor" va "Alla" radifi olib tashlanar ekan, ular o'z ko'rinishi hamda o'ziga xos xususiyatini o'zgartiradi. Ammo shunday "Yor-yor" va "Alla"lar borki, ular "Yor-yor" hamda "Alla" radifisiz ham o'z ko'rinishini o'zgartirmaydi.

Senga quydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdur murod, alla.
Yurtu elga suyansang, alla,
Senga bo'lg'usi qanot, alla [3. – B.143].

An'anaviy "Alla" qo'shiqlari xususiyatlaridan o'zbek bastakorlari (T. Jalilov, Yu. Rajabiy, F. Sodiqov) va kompozitorlari (A. Muhamedov, I. Akbarov, S. Yudakov) ijodiy foydalanishgan [2. – B.228].

"Alla"larning yaratuvchisi ham kuylovchisi ham onalardir. Ammo ba'zi hududlardan folklorshunos olimlarimiz tomonidan, bobolar va otalar tomonidan kuylagan "Alla"lar ham yozib olingan. "Huya" – bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarda otalarning bolalarni erkatalish uchun aytgan qo'shiqlaridir. "Alla"dan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. "Huya" aytish an'anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinyapti" [4. – B.48].

Yuragimning dardlari, alla,
Qizil gulday, qatma-qat, alla,
Yurakkinam o'tiga, alla,
Do'zax o'ti mos faqat, alla [1. – B.147].

Bundan tashqari, "nikoh to'yining ertasiga ertalab, "Alla bolam" marosimi o'tkaziladi. Kelin tomonlik ayollar kelinni o'rtaga o'tkazib, ikkita butun nonni bitta qilib (nasibasi but bo'lishi uchun) tishlatadilar va "Alla bolam" qo'shig'ini aytadilar. Bu marosim yoshlar tez orada farzand ko'rishlari uchun o'tkaziladi" [5. – B.47].

Alla bilan muomalada bo'lganimizda esa ruhiyatimizda muayyan hissiy o'zgarishlarni sezamiz. Shu tufayli alla odamda inson iqtidori, mahorati, aqli, zakovati, o'ziga xos kashfiyoti bilan mazkur asarga nisbatan hayrat, qoyil qolish tuyg'usini uyg'otadi. Aynan shu fazilati bilan alla ruhiyatimizni boshqaradi va umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki yer kurrasining turli mintaqalarida yashaydigan, turli dinlarga ishonuvchi xalqlarning hayotiy munosabatlarda mushtarak nuqtalar juda ko'p. Har bir millatda Vatan, xalq, ota-onas, aka-uka, opa-singil, o'gay ota, o'gay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalar bor. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarning asosiniadolat, andisha, haqiqat kabi tushunchalar belgilaydi. Shuning uchun onalar allarida mazmunida dunyodagi juda ko'p millatlarda uchraydigan jitimoiy hikmatlar bor. Ma'lum bo'ladiki, allaning bosh qahramoni, avvalo, inson hisoblanadi. Shu bois allani tinglaganimizda biz o'zimizning hayotimiz haqida mushohada yuritishga, tasvirlanayotgan voqealarni mavjud maishiy muhit bilan qiyoslashga o'rganamiz, har biridan foydali maslahat olishga, intilimizga motivatsiya olamiz. Ota-onas borki, farzandining tinch va osuda Vatanda sog'lom o'sib-ulg'ayishi, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini egallab, oilasiga, yurtiga tayanch bo'lishini istaydi.

Xulosa qilib aytganda, azaldan xalqimizning ilmu fan, ijodu mehnatga rag'batisi baland bo'lib, o'zining yuksak ma'naviyati, imon-e'tiqodi, milliy g'ururi hamda umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan go'zal odob-axloqi bilan hamisha ibrat bo'lgan. Shunday ekan, beg'ubor va muhtasham orzu-umidli yoshlarimiz yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan o'z vaqtida oqilona foydalanib, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz yuksalishiga hissa qo'shadigan farzandlar bo'lishiga ishonamiz.

Shu nuqtai nazardan alla kuylovchi onalarga tavsiyalarimiz inson – tiriklik mohiyati, olam gultoji dunyoda har bir narsaning o'zagi, mag'zi ekanligini quyidagi tamoyillar asosida:

yaratuvchanlik; mustahkam iroda; din-u diyonati; mehr-oqibat; sharmu hayo; boshqalarga xolis yordamga kelish; boshiga g'am tushganda sabr qilish; o'zga shodligiga sherik bo'lishga shoshiling.

Darhaqiqat, bu dunyo faqat tog'u-toshlar, qiru dalalar, bepoyon cho'lu sahrolardan tashkil topib, ularning bunyodkori odamzod yaratilmaganida olam bunchalar go'zal, hayot bunchalar zavqli, mazmundor bo'lmas edi. Zotan, inson – dunyo mohiyatining durdonasi, ma'nolar mahzani, pokiza qalb va muloyim tiynat sohibi, xushxulqlik egasi, bani basharni ezzulikka yetaklaydigan zot. Shu bilan birga, odamzod butun borliqni qirg'inbarot urushlar maydoniga aylantirish qudratiga ham ega. Shu boisdan insoniyat hamisha ta'llimga muhtoj, tarbiyaga muhtoj. Ziyoli, ma'rifatli kishigina hayot zavqini tuyadi, tiriklik mohiyatini anglaydi. Kamol topib, yuksalib boraveradi. Aksincha, kishining baxtsizligi uning tarbiyasizligi va ilmsizligidadir. Tarbiyasiz kishi sharmu hayosiz bo'lib voyaga yetishi, shubhasiz. Hayosiz kishida esa e'tiqod sust, xiyonatga moyillik tuyg'usi kuchli bo'ladi. Tarbiyasiz jamiyatda axloqi mayib kishilar ko'payib, muqaddas qadriyatlar zavol topadi. Halol-harom aralashib, odamiylikning mazmun-mohiyatiga putur yeta boshlaydi. Oqibatda, bu jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Umuman, tarbiyadan asosiy

maqsad olam mohiyatini tushuntirish orqali kishilar o'rtasida axloq-odobni targ'ib etish, hurmat-izzat, mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlash sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Alaviya. M. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. –Toshkent: Adabiyot va san'at. 1972. – 231.b. B.147.

Alla-yo alla. O'zbek xalq allalari. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: O. Safarov. – Toshkent: O'qituvchi. 1999. – 160 b.B. 9-10-11-13-137.

Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. To'plovchi: H. Razzoqov. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967. – 249 b. B. 143.

Jo'raev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi. 2008. – 172 b. B.160.

Nishonova O. Etnik madaniyat va marosimlar. Ma'ruzalar to'plami. –Toshkent: 2009. – 87 b. B. 47.

